

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining online moliyaviy xizmatlari.**

***Tashxodjayeva Sevara Yarashevna***

So‘nggi yillarda mamlakatimiz moliyaviy xizmatlar bozorida masofaviy xizmat ko‘rsatish va mobil ilovalar orqali onlayn banking xizmatlari ko‘rsatish hajmi va turlari sezilarli tarzda kengaydi. Moliyaviy xizmatlar bozoridagi jarayonlar jahon bozorlarida kechayotgan post-pandemiya tebranishlari, moliya bozorlaridagi retsession kuzatmalar, notinch va ziddiyatli jarayonlar ostida kechdi. So‘nggi yillarda bank-moliya tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, ayrim jihatlari moliyaviy xizmatlar ommabopligi darajasining jadal sur’atlarda o‘sishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xususan, mamlakat bank-moliya sektorining davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yuqori darajada ekanligi, bank sektorining ustun mavqeい va normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklar sohada raqobat va innovatsiyalarni cheklamoqda; moliyaviy texnologik (fintex) kompaniyalar, nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va lizing kompaniyalari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ular banklarga raqobatchi bo‘la olmayapti; xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda ularning qamrovini oshirishda zamonaviy texnologiya yutuqlaridan yetarli darajada foydalanimayapti; moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan choralarda asosan iste’molchilar manfaatlari ko‘zlanib, xizmat ko‘rsatuvchilarning iqtisodiy manfaatdorligiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Moliyaviy xizmatlar bozorining samarali, barqaror va haqqoniyligini faoliyat yuritishi uchun moliyaviy institutlar professional me’yor va etikaga ega bo‘lishi, moliyaviy bozorni regulyator tomonidan samarali nazorat qilinishi va tartibga solinishi, moliyaviy xizmatlardan foydalana olinishi va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilinishi hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish imkoniyati kabi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan komponentlarning mavjudligini toqazo etadi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Shu bilan birga, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish nazorat qiluvchi organlarning huquqiy va tartibga soluvchi muhitni samarali shakllantirish faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki moliyaviy xizmatlari ham hozirgi kunda anchagina takomillashdi Bank xalqaro moliyaviy institutlar hamda chet el tijorat banklari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Ular qatorida, Juhon banki, Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi, Osiyo bankirlar assotsiatsiyasi, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro fondi, Germaniya jamg'arma kassalari fondi kabi tashkilotlar mavjud.

Hozirgi kunda bank «BB-» darajasidagi «Fitch Ratings Ltd.» tashkilotining reytingiga ega. Reyting bahosi - «Barqaror» bo'lib, u aktivlar sifatining qoniqarli darajada ekanligini, daromadning yaxshilagini, likvidlilik va kapital yetarlilik darajasining talablarga mos ekanligini o'zida aks ettiradi. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinalarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lislini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berish – bankning missiyasi hisoblanadi.

<b>"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banking strategiyasi quyidagilardan iborat:<sup>1</sup></b>
Moddiy infratuzilmani rivojlantirish;
Strategik hamkorlikni rivojlantirish;
IT ni qo'llashni takomillashtirish;
Rivojlangan mamlakatlar bank tizimi va mahsulotlarini o'rganish hamda joriy qilish.
<b>Bankning "Sifat boshqaruv tizimi"dagi asosiy maqsad va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:<sup>2</sup></b>
Yangi bank xizmatlarini joriy qilish;

<sup>1</sup> <https://mkb.uz/uz/index.php>

<sup>2</sup> <https://mkb.uz/uz/index.php>

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Bank infratuzilmasini takomillashtirish;
Xizmat ko'rsatish punktlarini ko'paytirish
Bank faoliyatini avtomatlashtirish;
O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni qo'llab quvvatlash;
Xodimlar malakasini oshirish.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banking bir qator interaktiv xizmatlari mavjud. Xususan, Mikrokreditbank "Dibank" tizimi bilan integratsiya qilinishi hisobiga mijozlarining to'lovlarni amalga oshirishdagi vaqtin ikki martaga qisqartirildi. Dibank tizimi orqali tadbirkorlik sub'ektlarining bank bilan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashinish imkoniyati yaratildi. Endilikda Dibank orqali "1C" va "Didox" dasturlarida bir tugmani bosish bilan mazkur dasturdan bevosita bankka hujjatlarni yuborish va bankdan ularni olishlari mumkin.

<b>Bank mijozlari hisoblangan kichik biznes sub'ektlari "1C" yoki "Didox" dasturi orqali quyidagi amaliyotlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi:<sup>3</sup></b>
to'lov hujjatlarini bankka jo'natish;
to'lov hujjatlarini holatini nazorat qilish;
hisobvaraqdan aylanmasidan ko'chirmalarni yuklab olish;
to'lovlari bo'yicha hisobot shakllantirish;
ish haqi bo'yicha reestrni jo'natish.

Bundan tashqari jismoniy shaxslar uchun "SMS banking" xizmati ishgatushirligani. Jismoniy shaxslar uchun "SMS Banking" - bank omonatchilari uchun omonat qoldiqlari va omonat hisob raqamlari orqali amalga oshirilgan operasiyalar to'g'risidagi ma'lumotni SMS orqali jo'natish tizimidir. Ushbu xizmat orqali har oyning ma'lum bir kunida omonatchi mobil telefoniga omonat qoldig'i haqidagi ma'lumot yuboriladi. Shuningdek, omonat hisob raqami orqali ihtiyyoriy operasiyalar amalga oshirilganda, masalan, oylik foiz hisoblanganida, omonatdan pul olinganida, omonatga pul kelib tushganida o'sha kunning o'zida SMS-xabar omonatchiga yetkaziladi. Bu xizmatdan foydalanish bank tomonidan mutlaqo bepul

<sup>3</sup> O'sha manbaa

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

amalga oshiriladi.

"Internet Banking" xizmati orqali mijoz o`z ish joyida yoki boshqa o`ziga qulay sharoitda ixtiyoriy bank amaliyotlarini bajarishi mumkin. Jismoniy shaxslar uchun "Internet Banking" (shaxsiy kabinet) xizmati-bank omonatchilari uchun omonat qoldiqlari va omonat hisob raqamlari orqali amalga oshirilgan operasiyalar to`g`risidagi ma'lumotni kuzatib borish hamda to`lovlarni amalga oshirish imkoniga ega.

"Mikrokreditbank" ATB tizimida jismoniy shaxslar uchun "Mobile Banking" xizmat turi ishga tushirildi. Bunda mijoz mobil telefon apparati orqali istalgan joydan o`z hisob raqamini boshqarishi va nazorat qilishi mumkin.

Tizim imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- uyali aloqa operatorlari va shahar telefoni xizmatlari uchun to`lovlarni amalga oshirish;
- internet provayderlar va raqamli televideniyelar xizmatlari uchun to`lovlar;
- kommunal to`lovlarini (elektr energiya, uztransgaz, toshissiqquvvat, suvsoz, maxsustrans) amalga oshirish;
- iste'mol va ipoteka kreditlari uchun to`lovlarni amalga oshirish;
- hisobraqamlar holatini ko'rish va to'ldirish;
- omonat qoldiqlari va unga hisoblanayotgan foizlar bo'yicha ma'lumotlar olish;
- onlayn Smart Vista plastik karta qoldiqlari va uning aylanmalari bo'yicha ma'lumotlar olish;
- byudjetga to'lovlar;
- mablag'larni kartadan kartaga kontaktsiz o'tkazish.

Jismoniy shaxslar masofadan xizmat ko'rsatish tizimida quyidagi usulda foydalanishlari mumkin: tizimning "Mobile Banking" ilova dasturida ishlashi uchun internet tarmog`iga ularish imkonini beruvchi Android tizimida ishlovchi smartfon telefon apparati yordamida Play Market ilovalaridan "MKB Mobile" (logo belgisiga ega) yuklab olinadi.

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, bugungi kunda ushbu bank o'z xizmatlari

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ko'mak berib kelmoqda. Online platformasining yaratilganligi fuqarolarga masofadan turib ishlarini hal etishlariga katta imkon yaratmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Hamdamov, S. K. (2021). Zamonaviy dunyoda xalqaro investitsiyalarning asosiy shakllari. Science and Education, 2(12), 889-892.
2. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 8.
3. Erniyazova S.Sh., Khamdamov S.K., Yuldasheva N.V. FINANCIAL CRISIS AND HOW TO PREVENT IT// An International Multidisciplinary Research Journal. – Volume 11, Issue 3, March 2021
4. Хамдамов Ш. К. и др. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда пенсия таъминотининг аҳамияти //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 700-717.
5. Khamdamov S. ASSESSMENT OF RISKS RELATED TO PENSION SUPPORT OF CITIZENS CONCERNING PENSIONS BY AGE //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 8.
6. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. World of Scientific news in Science, 2023/12/17
7. Muhammadjon Muzaffarov. DIGITALIZATION OF THE BANKING SECTOR, ITS TRANSFORMATION AND EFFICIENCY. Miasto Przyszłości, 2023/12/31
8. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li. IQTISODIY O 'SIShGA TA'SIR KO 'RSATUVChI OMILLAR VA ULARNING TASNIFI. MASTERS, 2023/12/27
9. Muhammadjon Muzaffarov. RAISING INTERNATIONAL CAPITAL BY INCREASING THE COUNTRY'S INVESTMENT ATTRACTIVENESS. MASTERS, 2023/12/27

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

10. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li, Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. MASTERS. 2023/12/27
11. Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. WAYS TO IMPLEMENT OPTIMIZED FISCAL POLICIES IN PROMOTING ECONOMIC GROWTH. MASTERS, 2023/12/27
12. Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. TASHQI SAVDODA SOLIQ NAZORATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR. MASTERS, 2023/12/27
13. Ortiqov Ulugbek Akrombek o‘g‘li, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. O ‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINING RIVOJLANISHI. MASTERS, 2023/12/27
14. Muhammadjon Maxmud o‘g‘li Muzaffarov. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ORQALI KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH. Science and education, 2023/10/30